

YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA OILA TARBIYASI XUSUSIYATLARI

Abduvohidov Mirjalol O'ktamjon o'g'ili

*Guliston davlat universiteti psixologiya
yo'nalishi 64-21 guruh talabasi*

Annotatsiya: *ushbu maqolada bola tarbiyasida oila, ota-onaning o'rni va axamiyati xususiyatlari ayniqsa yosh oilalarning bola tarbiyasida nimalarga e'tibor qaratishi haqidagi ayrim muammolar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *komil inson, barkamol shaxs, oila, hayot, etuka, ota-ona, o'g'il-qiz, tarbiya, o'quvchi- qizlarni*

Yosh oilalarda ota-ona har tomonlama tajribasiz bo'lishadi. Ammo bola parvarishiga alohida mas'uliyat bilan qarashadi. Bu davrda bola asosan maktabgacha tarbiya muassasasiga va maktabning birinchi yoki ikkinchi sinfiga o'qishga boradi. Bola sho'x, qiziquvchan va taqlidchan bo'ladi. Ba'zan nazoratsiz qolib u yoki bu voqealar sodir bo'lganda onalarni aziyat chekib qolgan hollari ko'p uchraydi. Pichoq, gugurt, qaychi, igna, qaynoq suv yoki gaz plitasi oldiga bolani kelib qolishi, choynak yoki qozonga osilib qarash hollari kutilmagan vaqeani keltirib chiqaradi. Bundan tashqari elektr toki, ya'ni televizorni qo'yish yoki o'chirishga, elektr uzatgichlar, telefonni zaryad qiladigan shunurining bir tomoni tokda osilib qolishi va boshqalar bola uchun xavflidir.

O'rtacha yosh oilaning bolalari asosan bolog'at yoshida bo'lishadi. Bu yoshda ota-onalar bola tarbiyasiga e'tiborsizroq bo'lishadi. "Bolam katta bo'lib qoldi, o'zining aqli bor, hadeb ishlariga aralashaverish noqulay yoki tergayverish yaxshi emas", - deb o'ylashadi. Aynan mana shu joyda ota-ona qattiq yanglishadi. Balog'at yoshidagi bolani umuman nazoratsiz qoldirib bo'lmaydi. Uning kun tartibi, sutkalik rejimi oilada aniq belgilangan bo'lishi lozim. Aks holda bekorchilik, telefon o'ynash, internetga kirish va boshqa o'ziga "ko'ngil ochar" qiliqlarni o'ylab topish bolani jinoyatga etaklashi mumkin. Chunki, qarovsiz bola maktabga bormaydi, yaxshi o'qimaydi, oilada qiladigan ishining tayini bo'lmagach, alohida ongi shuuriga mos guruhlarga qo'shib qolganini o'zi bilmaydi. Maktabda dars jadvali bola faoliyatini rejimga solsa, oilada belgilangan rejim bolada mas'uliyat hissini shakllantiradi.

Katta yoshli oila bolaning o'spirinlik va mustaqil hayot davriga tug'ri keladi. Bu yoshdagi ota-onalar farzand tarbiyasiga bir muncha xotirjamlik bilan qarashadi. Har uchala yosh davrida ham oilada ota-onaning obro'si bolaga to'g'ri tarbiya berish bilan, ayniqsa, o'zlari ibrat-namuna bo'lishlari ila kafolatli natija qo'lga kiritiladi. "Ot bosgan joyni toy bosadi" deganlaridek, ota-ona hamisha andoza vazifasini bajaradi. Boshida to'xtalib o'tganimizdek, milliy tarbiyada ota-ona obro'si etakchi omil sanaladi.

G'arbda oilaga "shaxsiy ish" deb qaraladi. Hatto, shartnoma asosida ham oila qurish mumkin. Shartnoma bir, ikki yoki bir necha yillik bo'lishi ham mumkin. Bunda "oil", "ota-

ona”, “farzand hurmati”, “qarindoshlik” degan tushunchalar ishlatilmaydi. Oila mulki ham umumiy (yagona) emas.

Oila a’zolarining dasturxon, idish-tovog’i, ovqati ham bo’lak bo’lishi mumkin. Lozim paytlarda bir-biridan qarz oladi, o’z vaqtida omonat qaytariladi. Chunki, hayot, oilaviy tirikchilik omonat ostonaga quriladi.

Oilada ota-ona mas’uliyati, obro’si qanday talablarga javab berishi kerak? degan savolimizga turli yoshdagi ziyoli onalardan quyidagi tartibda javob oldik (1-jadval, jami 86 nafar ayollar).1-jadval

№	Javablar	Foiz hisobida	Izoh
1.	Er-xotin o’z vazifalarini to’g’ri va mas’uliyat bilan ado etishi lozim	67	
2.	O’zaro ishonch va hurmat bo’lishi kerak	63	
3.	Oila yuki, ya’ni majburiyatlar to’g’ri taqsimlanishi lozim	58	
4.	Oilaviy muammolarni oqilona, kelishib hal etish maqsadga muvofiq	54	
5.	Nizoli holatlarni kelib chiqishiga o’rin qoldirmaslik kerak	51	

Ko’rinib turibdiki, oilada er-xotinni bir-birini tushunishi, hurmat qilishi, har qanday sharoitda bir-biriga suyanchiq bo’lish oila obro’sini ta’min etuvchi omil bo’lib xizmat qiladi.

Ammo shunday oilalar ham borki, turmush o’rtog’iga, ya’ni jufti haloliga ortiqcha talablar qo’yadi, oila byudjeti imkoniyat doirasidan chiqib ketadi. Bechora ota-onaning mavqei oilada pasayib borgani sari, ayol etakchilikni qo’ldan qo’yib yubormaydi. Farzandlar oldida past-baland gaplar bo’lib o’tadi. Bunga birgina misol, “Otalar so’zi” ko’rsatuvida beshik to’yiga oid kichkina lavha ko’rsatildi. Gap ikki oylik bolaga tegishli sarf-xarajat haqida ketadi. Soxta obro’ni ketidan quvish bechora otaning oshqozon yarasini ochilib ketib, halok bo’lishiga olib keladi.

To’g’ri, bugungi kunda talaygina otalarning mavqei oilada pasayib borayotganligi ko’zga tashlanmoqda. Axir erkak oila yukini tortmasa, ishsizlik bahona uyida o’tirsa, ichkilikka yoki ulfatchilikka ruju qo’ysa, onalar o’zlarini tijoratga urib, bozorga chiqib ketishlariga to’g’ri kelmoqda. Eng yomoni tashqi migratsiyaning ta’sirida xorijda yurgan ayollarning ahvoli haqida nima deyish mumkin? Bunday oilada ibrat, ota-ona obro’si qaerda qoladi. Qarovsiz qolgan begunoh bolaning holi nima bo’ladi?

Oila ishi mamlakatimizda birinchi darajali davlat siyosatiga aylanib borayotgan bir sharoitda, mutlaqo yangidan tashkil topgan “Mhalla va oilalarni ijtimoiy qo’llab quvvatlash markazlari”ning faoliyatini etakchi ilmiy kadrlar bilan ta’minlash, markaz faoliyatiga oid ilmiy-amaliy izlanishlar olib borib, notinch va nizoli oilalarda sag’lom pedagogik muhit yaratish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Oilada uchta qiz chiqargan jannati bo'ldi deyishadi. Birgina qizni eplab chiqargan oila ham jannati bo'lsa kerak. Gap er-xotinning mavqei haqida ketar ekan, oilada erkakning hurmatidan kelib chiqib, uning so'zi so'nggi so'z yoki hal qiluvchi so'z bo'lmog'i lozim. Chunki er xotinning tarbiyachisi, maslahatchisi, oilaning ta'minotchisi, og'irini engil qiluvchisidir.

O'z navbaitda ayol, ona uy bekasi, erning nomusi, g'ururi, sharafidir. Xotin-erning itoatgo'yi, sabr-qanoat sahibasi, eng muhimi erning obro'sini saqlovchi.

Ota rozi-xudo rozi, ota o'tirgan uyning tomiga chiqmagan, farzand otadan fotiha olib yo'lga chiqqan, biron muammoli vaziyatlarda eng yaqin maslahatchi, ko'makchi ota hisoblanadi. Shuning uchun farzandga xulq-atvor ko'proq onadan, xarakter otadan, qiyofa har ikki tomondan o'tar ekan. Bu irsiy, ayni paytda ma'naviy-axloqiy ko'rsatgich oila yaxlitligini, oila obro'si hamda sha'nini belgilaydi. Qolaversa, oiladagi tinch-totuvlik, o'zaro hurmat, mehr-oqibat milliy mustaqillik mafkurasi maqsadi hamda printsiplarini ishonchli amalga oshuviga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi (o'quv qo'llmama). - T., 2020 y.
2. Hoshimov K, Nishonova S. Pedagogikatarixi (darslik). - T., 2005 y.287-297-b. Nurumbekova, Y. (2021). TRAINING OF FUTURE TEACHERS TO PROFESSIONAL EDUCATIVE ACTIVITY ON THE BASEMENT. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(01), 66-74.
3. Nurumbekova, Y., & Gulistan, U. Z. B. E. K. I. S. T. A. N. (2019). A TEACHER-EDUCATOR EDUCATIONAL INITIATIVE. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*.
4. Nurumbekova, Y. (2019). Importance of Technologizing Teacher-Mentor's Professional Activity. *Eastern European Scientific Journal*, (1).
5. Nurumbekova, Y. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORGARLIGI. *Архив научных исследований*, 2(1).
6. Anarmatovna, N. Y. (2023). КОУЧИНГДА СУХБАТ МЕТОДИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ТОМОНЛАРИ. *PEDAGOG*, 6(2), 173-175.
7. Anarmatovna, N. Y., & Ummatkulovna, X. Z. (2022). IMPROVING THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND MORAL-SPIRITUAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 1832-1838.